

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ  
ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА  
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**



**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ  
В XXI ВЕКЕ И ЗНАЧЕНИЕ В НИХ  
ИННОВАЦИЙ**



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ НОМИДАГИ  
ЖИЗЗАХ ДАВЛАТ ПЕДАГОГИКА ИНСТИТУТИ**

**XXI АСРДА БИОЛОГИЯНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ  
ВА УЛАРДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

**Биология ва уни ўқитиши методикаси кафедраси профессори Хударган  
Мавлонов таваллудининг 75 йиллигига бағишланган**

**Республика илмий анжумани материаллари  
(2021 йил 15 апрель)**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ БИОЛОГИИ В XXI ВЕКЕ И  
ЗНАЧЕНИЕ В НИХ ИННОВАЦИЙ  
МАТЕРИАЛЫ**

**Республиканская конференция, посвящённая к 75-летию профессора  
кафедры биологии и методики её преподавания Хударгана Мавлонова  
(15 апреля 2021 года)**

**Жиззах-2021**

**УДК: 581.5 (09)**

**ББК: 28.58 Г**

**Э-59**

**“XXI асрда Биологиянинг ривожланиш истиқболлари ва уларда инновацияларнинг аҳамияти” мавзусидаги республика илмий анжумани материаллари**

Жиззах 2021. – 498 бет.

**Таҳрир ҳайъати:**, проф. п.ф.д. Ш.С.Шарипов, таҳрир ҳайъати раиси б.ф.н. доц. Қодиров F., таҳрир ҳайъати ўринбосари проф., б.ф.д. Раҳмонқулов У.  
доц., б.ф.д. (PhD) Азимова Д.Э.  
б.ф.д. (PhD). Авалбоев О.Н.  
б.ф.д. (PhD). Абдуллаева Н.С.  
б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.  
Усанов У.Н.

**Тўплам редакторлари:** б.ф.д.(PhD)., доц. Азимова Д.Э., б.ф.д.(PhD).  
Авалбоев О.Н., б.ф.д.(PhD). Ҳамраева Н.Т.

*Уибу тўплам Жиззах давлат педагогика институтида 2021 йил 15 апрелда бўлиб ўтган Республика илмий анжумани материалларидан иборат.*

Уларда flora, систематика ва юксак ўсимликлар географияси, биологикхилма-хилликни ўрганиши ҳамда ноёб, ўқолиб бораётган ўсимлик ва ҳайвон турларининг муҳофазаси, ўсимликлар қоплами, ресурсларини ўрганиши, структуравий ботаника, экология, интродукция, сув ва қуруқлик ҷенозлари ҳайвонларни ўрганиши, паразитлар ва энтомокомлекслари шакллантирувчи, ҳаракатлартирувчи тадқиқотларнинг замонавий муаммолари бўйича олиб борилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Мақолалар тўплами илмий ҳодимлар, қишлоқ хўжалиги ва сув хўжалиги мутахасислар, олий ва ўрта маҳсус ўқув юртлари ўқитувчи, талабалари ҳамда тадқиқотчилар учун мўлжалланган.

**Мазкур тўплам Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта маҳсус таълими вазирлигининг 2021 йил 2 мартағи 78-Ф-сонли фармойиши асосида нашрга тавсия этилган.**

Uchinchidan, kasbiy o'sish va shaxsiy dunyoqarashni shakllantiradigan ma'lumotlarni olib salbiy axborotlardan o'zini psixologik ximoyalash imkoniyatlariga ega bo'lishini ta'minlash zarur. O'zbekiston mustaqilligining mustahkamligi uning ekologik madaniyat, sog'lom turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning ravnaqi avvalo uning fuqorolarga ularning amaliy faoliyatiga ma'naviy axloqiy barkamolliliga, g'oyaviy siyosiy etukligiga miliy o'zligiga qanchalik anglay olishiga ko'p jixatdan bog'liqdir.

Insonning sog'lomligi nafaqat tibbiy-biologik, balki, avvalam bor, ijtimoiy kategoriyadir, oxir-oqibatda u mavjud ijtimoiy munosabatlarning tabiatini va xarakteri, ijtimoiy omillar va shart-sharoitlar bilan belgilanadi. Tibbiy adabiyotlarda sog'lomlikni belgilashda bir necha xil yondoshuvlar mavjudligini ta'kidlashimiz mumkin. Shulardan biri sog'lomlikni kasallikning yo'qligi bilan bog'lab tushuntirishdir. Bunday yondoshuv asosan tibbiy psixologiya va shaxs psixologiyasi tadqiqotlariga xosdir. Biroq "sog'lomlik" fenomenini bunday izohlash ayrim kamchiliklardan holi emas. Birinchidan, sog'lomlikni kasal emaslik tarzida baholash mantiqan to'g'ri kelmaydi, binobarin, tushunchani inkor yo'li bilan belgilash to'la ma'noga ega emas; ikkinchidan, bunday yondoshuv sub'ektiv xarakterga ega bulib, sog'lomlik barcha ma'lum kasalliklarni e'tirof etish bilan birga hozircha noma'lum kasalliklarni e'tibordan chetda qoldiradi; uchinchidan, bunday ta'rif tavsifiy va mexanistik bo'lib, individual sog'lomlik fenomeni, uning xususiyatlari va mexanizmini ocha olmaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Tillaeva G. Sog'lom turmush tarzi – oqilona yashash omili.// Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning axloqiy qadriyatlarning o'rniga bag'ishlangan ilmiy – amaliy konferentsiya materiallari.- Toshkent : 2009. 12 - 17 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. (5 jildlik),3-jild.- T.:O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2007. 431, 563 b.

## **KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA CHET TILLAR BO'YICHA EGALLANGAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARINI MULOQOT JARAYONIDA QO'LLASH QOBILYATIDIR**

**Murotova G.N., Ismatullayev O.  
Jizzax davlat pedagogika instituti**

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rganishga yuksak e'tibor qaratilayotgani bois bu borada mustahkam tayanch baza yuzaga keldi. Ta'limning barcha bosqichlarida chet tillarini puxta o'rnatish uchun darslik va o'quv qo'llanmalar audio va video hamda ko'rgazmali materiallar yaratilib o'quvchi talabalarning qiziqishlari oshirib borilmoqda.

Bugun nafaqat darsda, balki sinfdan tashqari tadbirlarda ham o'quvchilarning ingliz tilidan olgan bilimlarining mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, yaqinda o'tkazilgan tadbirda 6ta jamoaga taqdimot qilish topshirilgan edi. Bunda guruhlarning taqdimoti 4 jihatga e'tibor qaratilgan holda baholandi. Bu jarayonda: guruh taqdimotining odob qoidalariga mos kelishi: tomoshabinni ushlab turishi-eye contant: taqdimotning dizayn rasmlarning mavzuga mos tanlangani :ishtirokchilarning notiqlik san'atiga ahamiyat berildi. Bu xususiyatlarning me'zonlar tarzida keltirilishi o'quvchilarning keying faoliyatida asqatadi.

Shuningdek har bir ingliz tili darsi 4 aspektga bo'lib o'tiladi. Bular: listening, reading, writing va grammar bo'lib mashg'ulotlarning har biri o'qituvchi tomonidan alohida olib boriladi. Bu eng avvalo o'quvchilarining 4 akpekt bo'yicha ham bilimini mustahkamlashga ko'maklashsa, ikkinchidan pedagoglarning baholash me'zoni asosida yagona baho chiqarish mas'uliyatini oshiradi. Bundan tashqari o'qituvchining vaqtini rejalashtirib darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonini osonashtiradi, dars sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chunki har bir aspect bo'yicha tayyorlangan o'qituvchi darsni samarali tashkil eta oladi. Bu usulda dars o'tilganda o'quvchilarining bilimi yanada mustahkamlanadi. Listining darsida "Cross culture" ya'ni "madaniyatlar kesishuvi" usuliga alohida ahamiyat qaratiladi. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat vakillari istiqomat qiladi. Mashg'ulotlar davomida har bir millatning madaniyatini o'rganish, an'ana va urf-odatlardagi o'xshashlik va farqli jihatlarni olib berishga harakat qilinadi. Bunda o'quvchilar inglis tilidagi bilimlarni rivojlantirish barobarida topshiriqqa ijodiy yondashishni ham o'rganadilar. Bugun dars berish jarayonida yoshlarimizda til o'rganishga ishtiyoq kuchlilagini ko'rib quvonamiz. Bu ishtiyoq shunchaki havas emas, balki bir maqsadga yo'naltirilgani ko'zga tashlanadi. O'qituvchilarни iloji boricha ko'proq bilim olishga intilayotgan o'quvchilar vaqtlarini behuda sovurmeyotgani yoshlarimizning xorijiy tillarda o'z ona tilidek so'zlashayotganiga guvoh bo'lamic. Bu intilish ertaga albatta o'z mevasini berishiga ishonamiz.

Mamlakatimizda chet tillarini o'qitishning kompleks tizimi yaratilib, ma'nан yuksaklikka intilayotgan, zamonaviy fikrlovchi yosh avlodning kamolga yetishiga zamin yaratildi.

Mazkur tizimni izchil davom ettirish natijasida zamonaviy pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarini puxta biladigan, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxxisilar etib tayyorlash orqali ularning jahon ilm – fan yutuqlari hamda dunyo axborot manbaidan keng foydalanishi, xalqoro hamkorlik va muloqot muhitini rivojlantirish uchun shart sharoit va imkoniyatlar yaratildi bu boradagi amaliy ishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 – yil 10 – dekabrda qabul qilingan "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takommilashtirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan yanada mustahkamlab qo'yildi.

Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida halqaro e'tirof etilgan standart talablariga muvofiq "Chet tillarini bilish va egallash darajasini baxolash milliy tizimi"ni ishlab chiqish va ta'lim tarbiya jarayoniga tadbiq etish ishlari keng ko'lamma olib borilmoqda. Bunda "Chet tillarini o'rganish, o'rgatish va baholashning umumyevropa kompetensiyasi" hamda chet tillarini egallash darajasini baholashning qator xalqoro, ya'ni ingliz tili bo'yicha Cambridge, ESOL, IELTS, TOEFL, DELF (fransuz tili xorijiy til sifatida) va TestDaf (nemis tili xorijiy til sifatida) tizimlari o'rganib chiqildi.

Mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi o'rganuvchilarining ko'p madaniyatli dunyoda ilmiy va kaaspga oid sohalarda faoliyat olib borishi uchun chet tilida kommunikativ kompensatsiyani shakllantirishdan iborat. Chet tili kommunikativ kompensatsiyasi – o'rganilayotgan chet tili bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalari muloqot jarayonida qo'llash qobiliyatidir. Kompentensiyalar o'z navbatida quyidagi guruhlarga ajratiladi:

• Lingvistik kompetensiya til (fonetika, leksika, gramatika) haqidagi bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallashni nazarda tutadi.

• Sosiolingvistik kompetensiya so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish – istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi.

Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy – madaniy kompetensiyalarni o'z ichiga olib autentik nutqning milliy xususiyatlari: o'zi yashayotgan mamlakatning urf odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy – madaniy an'analarini bilish hamda tili o'rganilayotgan mamlakatlar bilan taqqoslagan holda taqdim etish qobilyatini ko'zda tutadi.

• Progmatik kompetensiya o'rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobilyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi progrmatik kompetensiya tarkibiga kiritiladi. Bu kompetensiya og'zaki yoki yozma nutqda fikrlarning tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi. Diskurs kompetensiyasi og'zaki yoki yozma nutqdagi izchillikni ta'minlashda lingvistik signallarni tushunish va sharhlab berish ko'nikmalarini nazarda tutadi.

Ta'lim mazmuni umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb – hunar va oliy ta'limning fanlar bo'yicha o'quv dasturlarga kiritilgan mavzulardan iborat. O'quv materiali ta'limning barcha turlarida uzviylik, uzuksizlik va davriylikni ta'minlaydi. Har bir ta'lim bosqichida mazkur standart mazmunidan kelib chiqqan holda o'quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqishda minimum sifatda foydalilaniladi.

Shuningdek, uzuksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti bilan bitiruvchilarning chet tillar bo'yicha egallagan bilim ko'nikma va malaka darajalariga qo'yiladigan talablar ta'lim mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb – hunar va oliy ta'lim bo'yicha uzviy bo'lib, nutq ko'nikma va malakalarinig deskriptolari "can do" mazmunida tasvirlangan hamda grammatika, leksika, fonetika, orfografiya bilan to'ldirilgan.

Xalqoro standartlarga moslashtirish maqsadida nutq ko'nikma va malakalarinig deskriptorlari chet tillarini bilishning umumyevropa tuzimiga o'zaro bog'liq holda hamda soda va tushunarli shaklda beriladi. Bitiruvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malaka darajalariga qo'yiladigan talablardan kelib chiqib, deskriptorlar har bir darajaning to'liq egallaganligini ta'minlash uchun ta'limning barcha bosqichida o'quv dasturlari va darsliklarini ishlab chiqishda tuzuvchilar tomonidan inobatga olinishi nazarda tutilgan.

Hulosa o'rnida aytish mumkinki, chet tillarini o'rganish bo'yicha amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlar mamlakatimiz ta'lim sohasidagi islohotlarni yangi bosqichga ko'taradi, yoshlarimizning xorijlik tengdoshlari bilan bemalol so'zlasha olishi, ona yurtimizning go'zalligi, milliy an'analarimizning o'ziga hosligi, bunyodkorlik ishlari bilan tanishtirishi, muhtaram Yurtboshimiz ta'biri bilan ayitganda, hech kimdan kam bo'lmay voyaga yetishini ta'mnlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumta'lim fanlari metodikasi 2015 – yil / fevral №2 (50)
2. Essential Grammar in Use Raymond Murphy
3. Teens' English Светлана Хан, Lyumila Kamalova, Lutfullo Jo'rayev

OLAM” VA “TABIATSHUNOSLIK” DARSLARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TRIZ TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH...	94
34 BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARI IJODIY FIKRLASH QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI.....	96
35 Ergasheva N.E., Sodiqova M.Sh.INTERFAOL USULLAR ORQALI O’QUVCHILARDA MUSTAQILISHLASH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH.....	98
36 Jabbarova Z. O. Islamova N. BOSHLANGICH TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI.....	101
37 Almamatova Z.X, Esankulova D. S. Alikulova S. T. EKOLOGIK MADANIYAT VA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYANING MUHIM JIHATLARI.....	103
38 Murotova G.N., Ismatullayev O. KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA CHET TILLAR BO'YICHA EGALLANGAN BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI MULOQOT JARAYONIDA QO'LLASH QOBILYATIDIR.....	105
39 Mustafaqulova D. I., Ismatullayev O., Azamova M. A. BIOLOGIYA DARSLARIDA “DOMINO” METODIDAN FOYDALANISH.....	108
40 Раббимова Ф.А., Абдумурадова Д.У. ПОЗНАНИЕ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ ЦЕННОСТИ ПРИРОДЫ.....	110
41 Жулбоев Т.А., Убайдуллаева З., Абдувалиева К.Х, Султонов М.М. КИМЁВИЙ ЖАРАЁНЛАРНИ МОДЕЛЛАШТИРИШДА CROCODILE CHEMISTRY ДАСТУРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ УСУЛИ.....	112
42 Imomov O. N., To'xtaboyeva Yu.A. TA'LIMDA YEVROPA OLIY O'QUV YURTLARINING INNOVATION TAJRIBALARI (Polsha misoldida).....	116
43 Раббимова Ф.Т., Жўраева Л. БўЛАЖАК БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА БАДИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АМАЛИЁТДАГИ ҲОЛАТИ.....	118
44 Shaymatov S.R., Maxammadiyev D.M., Pardaboyev S.B. O’QUVCHILARGA EKOLOGIK TA'LIM – TARBIYA BERISH.....	122
45 Rabbimova F.T., Djomalova V. BOTANIKA DARSLARIDA RA'NODOSHLAR OILASINI O'QITILISHIDA ESTETIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH.....	125
46 Toshpo'latov O. INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING TA'LIMDAGI O'RNI.....	127
47 Раббимова Ф.Т., Тошпўлатов О. БўЛАЖАК БИОЛОГИЯ ЎҚИТУВЧИЛАРИДА БАДИЙ-ЭСТЕТИК КОМПЕТЕНТЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ.....	132
48 Кубакова К. К., Остонов Ш. БИОЛОГИЯНИ ЎҚИТИШДА ДИДАКТИК ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ.....	135
49 Холбутаев Ш. СИНФДАН ТАШҚАРИ МАШҒУЛОТЛАРДА – ЭКОТУРИЗМ СОҲАСИ ОРҚАЛИ ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ	